Boshlang'ch sinflarda ingliz tilini o'qitishda o'quv-kognitiv va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslari

M.E.Sharipova
Nizomiy nomidagi TDPU
Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish jarayonida o'qituvchining roli va o'quv-kognitiv, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari, til o'rgatish jarayonidagi yoritilgan. Maqolada boshlangich sinflar uchun ingliz tilini o'rgatishning pedagogik asoslari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: O'quv-kognitiv kompetensiya, motivasiya, ijodkorlik, ta'lim mexanizmlari

O'quvchilarning o'quv faoliyatlari ta'lim jarayonining o'zagini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'quv faoliyati motivatsiyasini o'rganish, unga ijobiy ta'sir ko'rsatish ta'lim samaradorligini oshiradi. O'quv faoliyati motivatsiyasi, so'zsiz, o'quv motivlari bilan chambarchas bog'liq. O'quv motivlarining har xilligi ta'lim jarayonining ham xususiyatini o'zgartirib yuboradi. Demak, o'quv faoliyati motivatsiyasini tarkib toptirish, kuchaytirish uchun bolada, avvalo, mazkur faoliyatga nisbatan ehtiyojni paydo qilish zarur ekan. Bunday ehtiyoj esa, o'z-o'zidan vujudga kelib qolmaydi. Ushbu vaziyat an'anaviy ta'lim jarayoniga sezilarli darajadagi o'zgartirishlarni kiritishni ta'lab qiladi. Buning uchun konkret yangiliklar darkor. Biroq ko'zga ko'ringan texnologiyalardan ko'r-ko'rona foydalanish yaramaydi. Kiritilayotgan innovatsiyalarning yo'nalganligi katta ahamiyat kasb etadi. Aynan shuning uchun ham ushbu o'zgartirishlar mohiyati quyidagi tamoyillarga muvofiq bo'lishi joiz: 1. Ta'lim mazmunini psixologizatsiyalash. Ta'lim o'zida inson xususidagi barcha bilimlarni qamrab olgan bo'lishi kerak: inson taraqqiyoti, qobiliyatlari, motivatsiyasi. 2. Ta'lim jarayoni differensiatsiyasi. Differentsiatsiya nafaqat mazmuniy jihatga, balki bilimlarni o'zlashtirish darajasiga ham taalluqli bo'lishi lozim. 3. O'quvchilarning mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish. Bolaga u amalga oshirayotgan faoliyat subyekti sifatida munosabatda bo'lish darkor. Shaxsiy mas'uliyat va mustaqillikka intilish – muvaffaqiyatga intilish ehtiyoji mavjud inson belgisidir. 4. O'quvchilarni baholashda o'qituvchida avtoritarizm bo'lmasligi kerak. Bunday holat ularda subyektiv fikrni rivojlantirishga, o'ziga bergan barqaror bahosini shakllantirishga imkon beradi. 5. O'quv samaradorligini oshirishga qaratilgan barcha harakatlarni rag'batlantirish. Ijobiy motivlarni kuchaytirishga qaratilgan metodlardan foydalanish ularda o'zining kuchiga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi. 6. O'quvchilarda ularning imkoniyatlari darajasidagi, biroq o'ziga yarasha og'ir faoliyatga jalb etish yo'li bilan irodaviy sifatlarni rivojlantirish. To'siqlarni yengib o'tolmaslik xohishlarni o'ldiradi. Muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchi o'z maqsadi yo'lida uchraydigan barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishga tayyor bo'lishi kerak. 7. Boshqa insonlarga va hamkorlikdagi faoliyatga nisbatan ijobiy qadriyatlarni shakllantirish. Bu o'ta muhim, chunki, individualizm motivatsiyasi shaxs ichki olamning qashshoqlashuviga olib keladi va insonni yolg'izlatib qo'yadi. 8. O'quv faoliyati taraqqiyotining o'quvchi uchun ahamiyat kasb etishini ta'minlash. Zotan, ta'lim samaradorligi o'quvchining mazkur jarayonga qay darajada jalb etilganligi bilan bog'liq. Yuqoridagi har bir ta'lim turining zamirida har xil o'quv motivlari yotganligini tushunish qiyin emas va ularning har birining sifat va samaradorligi ham har xil bo'lishi tabiiy. Demak, o'quvchilar faoliyatini boshqarib turgan o'quv motivlarini o'rganish va ularda ijobiy o'quv motivlarini shakllantirish yo'llarini ishlab chiqish o'ta dolzarb masala ekan. Ijodiy tafakkurni, boshqa faoliyat turlari kabi, ijtimoiy kontekstda ko'rish kerak.

Kishining ijodiy salohiyatini oshirish maqsadida tashqi muhitni uyushtirishdan tashqari insonda ma'lum bir ko'nikmalar mavjud bo'lishi zarurligini ham inobatga olish joiz. Chunki ma'lum bir sohada zaruriy bilim va texnik malakalarga ega bo'lmay turib, zo'r olim, buyuk

yozuvchi, iqtidorli rassom bo'lishning iloji yo'q. Qisqacha qilib aytsak, agarda kishi ijodiylik salohiyatini oshirmoqchi bo'lsa, unda maxsus bilimlardan kechishi mumkin emas. Tashqi muhit omillari juda muhim. Yaxshi ta'lim ko'p qirrali tafakkur, yangi g'oyalar asosi bo'lib xizmat qiladi. Yaratish uchun boshni bilimlar bilan to'ldirish kerak. Kishi o'zida o'qishga nisbatan histuyg'uni shakllantirishi joiz. Ijod – mashaqqatli mehnat samarasi, undan qo'rqmaslik uchun esa inson butun kuch-g'ayratini ishga solishi kerak. O'qituvchi o'quvchining o'z faniga yoki uning o'ziga nisbatan munosabatini yaxshi his qiladi. Odatda o'qituvchilar ishtiyoqmand, motivatsiyasi kuchli o'quvchilarni ko'proq yoqtiradilar va, aksincha, loqayd subyektlarda ko'proq salbiy, biroq motivatsiyaga umuman aloqasi bo'lmagan sifatlarni ko'rishadi. Psixologlar tomonidan motivlashmagan insonlarga xos mas'uliyatsizlik, loqaydlik, parishonxotirlik, beg'amlik kabi motivatsiya yetishmasligi oqibatida kelib chiqqan sifatlar bilan birga, unga aloqasi bo'lmagan qo'pollik, qaysarlik, ahmoqlik, omadsizlik singari sifatlarni ham kiritib yuborishlari isbotlangan. Boshqacha qilib aytganda, motivatsiyasi kuchli insonlar motivatsiyasi zaifroq kishilardan ko'ra ijobiyroq idrok qilinadi. Motivatsiyasi zaif insonga nisbatan oldindan belgilangan salbiy munosabat muomalaning nosamimiy uslubini paydo qilib, bu hol o'quvchi ishtiyoqining so'nishiga olib keladi. Ya'ni yetarlicha ishtiyoqi yo'q deya tahmin qilingan o'quvchi motivatsiyasi mavjud bo'lmagan tengdoshlari qatoriga kiritib yuboriladi va, aksincha, agar o'qituvchi motivatsiyasi yo'q ta'lim subyektiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lsa, u motivatsiyasi kuchlilar qatoridan o'rin olishi mumkin. Psixologlar ushbu metodni "o'z-o'zidan ro'yobga chiqadigan bashorat" deb yo'naltiriladigan quyidagi algoritmdan foydalanish mumkin. "O'z-o'zidan ro'yobga chiqadigan bashoratlar metodi algoritmi. 1.Siz o'quv motivatsiyasi yetarlicha shakllanmagandek tuyuladigan o'quvchingizni yodga oling. 2.Ushbu o'quvchi xususida o'zingiz biladigan barcha ma'lumotlarni unutishga harakat qiling. 3.Uni qanday ko'rishni istayotganingiz to'g'risida yaxshilab o'ylab ko'ring. 4.Uning aniq ideal siymosi ko'z o'ngingizda gavdalanishiga erishing. 5.Siz uni qanday ko'rishni istagan bo'lsangiz, xuddi o'shanday deb tasavvur qiling. 6.Endi mazkur odamga biron-bir muammo yuzasidan murojaat etganda, o'zingizning u xususidagi ideal tasavvurlaringizga tayanib ish ko'ring. Sizning bashoratingiz o'z-o'zidan amalga oshadi. U sizning ideal tasavvuringizga yaqinlashadi. Ushbu algoritmdan, dastlab, yangi xulq-atvorni ishlab chiqish va alohida o'quvchilarga yoki butun guruhga nisbatan munosabatni yangilash treningi sifatida foydalaning, keyin esa mazkur yangi xulqatvorni o'zingiz uchun me'yorga aylantiring. O'quvchilarda o'quv motivlarini shakllantirish uchun pedagog dastavval ularni bilishi, o'quv jarayonini ichki ijobiy motivatsiya paydo qilish yo'nalishida tashkil etishi zarur.

Ma'lumki, zamonaviy lingvistik adabiyotda til va nutqning o'zaro aloqasiga oid hamma tomondan e'tirof etilgan yagona fikr mavjud emas. Bir guruh tilshunoslar til va nutqning farq qilinishi tilshunoslik nazariyasi uchun qonuniy va samarali deb hisoblaydi. Boshqa tilshunoslar esa bunday farqlanish umumiy tilshunoslik muammolarini mukammal ishlab chiqilishiga va til rivojlanishining asosiy g'oyalariga mos kelmaydi deb o'ylaydi. Uchinchi guruh tilshunoslar til bilan nutqni farqlash mumkinligi va foydali ekanligini tan olgan holda, til va nutq bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmasligi kerak, chunki til va nutq hodisaning ikkita tomonidir deb qaraydi. So'nggi fikrga qo'shilish ancha qiyin, chunki til va nutqning birligi aynan bir xil mohiyatga ega hodisalardir deb hisoblashga asos bo'la olmaydi. Mashhur tilshunos olim V. Shcherba tilda uchta tomonni: nutq faoliyati, til tizimi va matnni farq qilish lozimligini ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, nutq faoliyati — gapirish va nutqni tushunish jarayonlaridan, til tizimi, tillar lug'atlari va fammatikalardan, til materiali esa matndan iboratdir. Tilning nuqtdan asosiy farqi shundan iboratki, til, til vositalari tizimidan iboratdir, nutq esa bu tizimdan foydalanish jarayoni va natijasi demakdir. Nutqiy muomala ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Nutqning tildan farqi shundaki, nutq bir paytda individual ruhiy hodisa sanaladi, tizim sifatidagi til esa ijtimoiy hodisadir: nutq

rivojlanuvchan, o'zgaruvchan, vaziyat bilan bog'liq va tasodifiy hodisadir. Til esa ichki aloqalarning mujassamlangan tizimi bo'lib, u o'z mohiyatiga ko'ra, doimiy, qat'iy, uzgarmas hodisa sanaladi. Til birliklari shaklan-semantik jihatiga ko'ra tizimga birikadi. Nutkda til birliklari kommunikativ mazmun asosida o'z vazifasini bajaradi. Til va nutq tushunchasini farqlash, metodika uchun juda muhimdir. Zamonaviy tilshunoslikda til deganda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kommunikativ shifrni va u yoki bu jamiyat kishilari ongida mustahkamlangan bu koddan foydalanish haqidagi qoidalar tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, til bu aloqa uchun zarur va yetarli bo'lgan til vositalari tizimi va ular- dan foydalanish qoidalaridan, nutq esa til tizimining ma'lum nutqiy harakatlarda ifodalanishidan iboratdir, ya'ni u aloqa jarayonini ham, shu jarayon mahsuli bo'lgan matnlarni o'z ichiga oladi.

Chet tillarni o'qitishda bilimlar, malakalar, ko'nikmalar singari psixologik tushunchalar muhim o'rin tutadi. Umumiy bilimlar deganda bilish jarayonida olingan tabiat va jamiyat haqidagi ma'lumotlarni tushunadi va ikkiga bo'ladi. 1. Til materialining o'zini bilish. 2. Til materiali bilan bajariladigan ishlar haqidagi bilimlar. Til materiali asosida nutq faoliyatlari bajariladi, ya'ni malaka hosil qilishga erishiladi. Chet tillarni o'qitishdagi eshitish, talaffuz qilish, o'qish, yozish, leksik, grammatik kunikmalar farqlanadi. Ushbu harakat jarayonida ma'lum bilim, ko'nikmalar qo'llaniladi, lekin bular ongli bajariladi. Shu sababdan chet tillarni o'qitishda nutq ko'nikmalari gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozishni ajratib ko'rsatish mumkin, chunki bu aloqa harakatlari ongli ijodiy jarayonlarning natijasidir.

Ta'lim mazmunini belgilashda quyidagi mezonlarni hisobga olish kerak:

- bolalarni yosh jihatidan qiziqishlari;
- ularning ona tilidagi til tajribasi;
- til materialining kommunikativ qiymati;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarning chet tilida muloqot qila olish ko'nikmalarini real va reallikka yaqinlashtirilgan sharoitlarda rivojlanishi;
- chet tilidagi ta'lim mazmuni ijtimoiy madaniy bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga olishi. Yana bir komponent - darsning ijtimoiymadaniy komponentidir. Ijtimoiy-madaniy komponent mazmunini tanlash quyidagi omillar asosida amalga oshiriladi:
- bolalar qiziqishi, mamlakat va uning madaniy boyliklari, tili o'rganilayotgan mamlakatning zamonaviy mavjudliklarini hisobga olish kerak;
- bolalarning nutq apparatining egiluvchan va moslashunchanligini hisobga olgan holda, ularda ongli va ongsiz taqlid qilish yordamida barqaror talaffuzni hosil qilish mumkin;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarga chet tilini o'rgatish jarayonida quyidagi metodologik talablarga e'tibor berish kerak:
- guruh va sinfda bolalarning ijodiy faoliyati uchun yoqimli muhit va sharoitlar yaratish zarur;
- til materiallari, topshiriqlar, usullar yordamida bolalarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini xosil qilish kerak;
- zamonaviy faoliyatni tashkillashtirishda guruhiy, jamoaviy faoliyat turlaridan foydalanish, nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish)ni shakllantirishda produktiv faoliyatning har xil turlari (musiqa, tasviriy san'at)dan foydalanish. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarga chet tilini o'rgatishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelamiz, bolalarning chet tillarini egallashi qonuniyatlari o'qituvchi nuqtai nazaridan emas, balki kichik yoshdagi o'quvchilarning xususiyatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, ta'lim berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki aynan mana shu omillar metodik muammolarning yangi yechimlari va kichik maktab yoshidagi bolalarga chet tili o'qitishning nazariy asoslarini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, darsda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarining uyg'unligini ta'minlash orqali dars jarayonida o'qituvchi bilan

o'quvchilar orasida hamkorlik, o'zaro muloqot qilish va ijodiy faollik ko'rsatish uchun qulay sharoit yaratiladi. O'quvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi. Buning natijasida har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatishda o'quv-kognitiv va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Komenskiy Ya.A. "Buyuk didaktika". - Sevimli. ped. Op. M., Uchpediz, 1955 yil.
2. Leontev A. A. Mesto psixologii v sovremennoy nauke o chtenii: Problemi sotsiologii i psixologii chteniya. — M.,1975.
3. Sherba L.V. Prepodavanie yazikov v shkole: Obshie voprosi metodiki: ucheb. posobie dlya stud. filol. fak. –3-ye izd., ispr. i dop. – SPb.: Izd-vo SPbGU; M.: Akademiya, 2003. – 160 s
4. Zaripova F.A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma. - Toshkent 2002y
5. Abduganiyeva S.Sh. "Innovative, Modern Approach to Teaching English"- MIASTO PRZYSZŁOŚCI, 2022y
6. Allamuratov G.A. "Research of Modern Technologies of Education"- JOURNAL OF PHARMACEUTICAL NEGATIVE RESULTS, 2022y
7. Attaullaev F.F. "BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING AYRIM JIHATLARI XUSUSIDA" - Scientific Impulse, 2022y
8. Babaxodjaeva Sh. M. "WINTER IS THE PURPOSE AND MEANS OF WINTERING"- E Conference Zone, 2022y
9. Boltaeva M.M. "FORMS OF INTRODUCTION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PHYSICAL TRAINING CLASSES AND WAYS OF THEIR USE"- Scientific bulletin of namangan state university, 2019y
10. Karimova J.Sh. "Characteristics of Phraseological Units Related to Floronym in Languages (In the Example of English-Russian-Uzbek Languages)- Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS),2022y
11. Karimova J.Sh. "The Importance Of Listening In Foreign Language Learning"- The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2022y
12. Maqsudova G.O. "Research of Modern Technologies of Education"- JOURNAL OF PHARMACEUTICAL NEGATIVE RESULTS, 2022
13. Maqsudova G.O." IMPROVING STUDENTS' FOREIGN LANGUAGE TRAINING ON THE BASIS OF AN INTEGRATED APPROACH"- Web of Scientist: International Scientific Research , 2022y
14. Mamajonova N.A. "Research of Modern Technologies of Education"- JOURNAL OF PHARMACEUTICAL NEGATIVE RESULTS, 2022y
15. Nabiyeva M.S. "The importance of the principles of collaborative learning in teaching English to middle school students" - Молодой ученый, 2020y
16. Ro'zmetova D.A. "ABOUT COMPARATIVE ANALYSIS OF ECONOMIC TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES."- Theoretical & Applied Science, 2020y
17. Ro'zmetova D.A. "Challenges in Teaching English as a Specific Purpose" - Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science,2021y
18. Ro'zmetova D.A. "Research of Modern Technologies of Education"- JOURNAL OF PHARMACEUTICAL NEGATIVE RESULTS, 2022y
19. Ro'zmetova D.A. "Research of Ecological Safety and Chemical Compositions of Phospholipids Obtained from Local Vegetable Oils and Their Miscelles"- E3S Web of Conferences 288, 01084 (2021)

20. Sadikov T.U. “IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF MILITARY PEDAGOGIES FROM FOREIGN LANGUAGES AS ONE OF THE MAIN FACTORS OF MODERNIZATION OF EDUCATION”- European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020

21. Tursunova I.S. “DUAL EDUCATION SYSTEM AND ITS IMPORTANCE IN TRAINING PROFESSIONALS”- International Journal of Psychosocial Rehabilitation,2020

22. Uralov O.Sh. “Internationalization of higher education in Uzbekistan” - Social Sciences & Humanities Open, 2022

23. Karimova J.Sh. “Антономические отношения между фразеологическими единицами с названиями растений”- Labaratorium WIEDZY,GOSPADARKA I INNOWACJE, 2022y

24. Karimova J.Sh. “INGLIZ TILI DARSLARIDA O`QUVCHILARNING LUG`AT BOYLIGINI OSHIRISHDA QO`LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR”- International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applies Sciences, 2022y

25. Karimova J.Sh. “SEMANTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL ANTONYMS WITH FLORONYMS IN ENGLISH”- International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS,2022y

26. Abduganiyeva S.Sh. “Input processing in Adults SLA” - Involta Innovatsion Scientific Journal,2022y

27. Allamuratov G.A. “Model of fostering Student Tolerance in The Process of Learning a Foreign Language”- Eurasian Scientific Herald. 2022

28. Allamuratov G.A. “Didactic Aspects of developing Students' Professional Communicative Competence in Foreign language” - Oriental Journal of Philology/ Sharq filologiyasi jurnali,2022

29. Babahodjaeva Sh.M. “Some pecularities of teaching vocabulary”- ТДПУ Илмий ахборотномаси, 2022

30. Maqsudova G.O. “SOME ISSUES OF IMPROVING STUDENTS' FOREIGN LANGUAGE READINESS” - Oriental Journal of Philology/ Sharq filologiyasi jurnali , 2022

31. Maqsudova G.O. “ASSESSMENT OF STUDENTS' FOREIGN LANGUAGE READINESS THROUGH THE INTEGRATIVE DEVELOPMENTAL APPROACH”- Oriental Journal of Philology/ Sharq filologiyasi jurnali, 2022

32. Maqsudova G.O. “IMPROVING STUDENTS' FOREIGN LANGUAGE TRAINING ON THE BASIS OF AN INTEGRATED APPROACH”- Web of Scientist: International Scientific Research, 2022

33. Tursunova I.S. “Developing Pedagogical technologies and skills” - Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), 2022

34. Tursunova I.S. “American Journal of Interdisciplinary Reeach and Development” - Dual education system its importance in training professionals, 2022

35. Uralov O.Sh. “Олий таълимда миграция жараёнлари талабаларнинг академик мобиллиги хусусиятлари “-ТДПУ Илмий ахборотномаси,2022

36. Karimova J.Sh. “Фразео-синонимический ряд и проблема доминанты” - Хоразм маъмун академияси ахборотномаси , 2022

37. Karimova J.Sh. “СИНОНИМИЧЕСКИЙ РЯД ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С НАЗВАНИЯМИ РАСТЕНИЙ В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ” - “ZAMONAVIY TA“LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G„OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI 38-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE KONFERENSIYASI, 2022